

ISSN 2181-7138

МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Айтбаев Д. Т. Асимметрик дуализм коммуникациянинг семиотик тамойили сифатида	6
Yuldasheva Sh. Sh. Та'limni raqamlashtirish sharoitida o'zbek tilini qardosh tillardagi guruhlarda o'qitishning o'ziga xosliklari va tajribalar	13
Arifjanova O. Q. Ingliz tilini o'qitishdagi yangi texnikalar: o'qish(reading) va eshitib tushunish(listening) misolida	20
Неъматова С. Глубокие корни развития литературы	25
Мирзорохимов О. К. Для чего предназначен словарь	33

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yusupova M. A., Baxtiyorova S. E. Pedagog tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati	40
Jabborova O. M., Baxtiyorova S. E. Bo'lajak ingliz tili pedagoglarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishtirish yo'nalishlari	44
Narimbetova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	48
Umarova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari	52
Umarova Z. A., Nazirjonova M. B. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari	60
Xusnetdinov U. I. Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniyatni shakllantirish g'oyasining rivojlantirish yo'llari	64
Qarshiboyeva X. K. TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari	72
Beketov N. A. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni boshqarish	78
Beketov N. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarbiya funksiyalari	84
Quzmanova G. B., Davlatova M. A. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS hamda PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	95
Kuchkinov A. Yu., Tilovova S. B. EKO-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv	100
Qorajonova B. T. Maktablarda psixologik maslahat tashkil etishning samarali shakl va uslublari	110
Абдурахмонова У. Н. Педагогик фаолиятда инновациялардан самарали фойдаланишни ташкил этиш йўллари	117
Turayeva G. E. Pedagogik jarayonni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyat va afzalliklari	121
Xurramova M. A. Ta'lim mazmunini shakllantirishda hermenevtik yondashuv imkoniyatlari	126
Achilov T. S. Vatanparvarlik tarbiyasi – maktab o'quvchilarining qiymat-semantik kompetensiyasini shakllantirishning muhim elementi sifatida	134
Abdusalilova D. Madaniyatlararo muloqot yo'nalishida «ijtimoiy-madaniy kompetentlik» tushunchasi	141
Мусурманкулова М. Н. Изучение сопоставительно-диаектологической компетенции в современной педагогике	146
Шамиева О. Р. Роль дисфункциональных родителей в эмоциональном благополучии ребёнка	152
Ochilov E. Yu. Role of ai-powered chatbots in increasing efficiency of learning processes	156



UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING TARBIIYA FUNKSIYALARI

Beketov N. A.

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiyaga rahbarlik qilish, ta’lim turlari, tarbiya omillari.

Ключевые слова: воспитание, методы воспитания, руководство воспитанием, виды воспитания, факторы воспитания.

Key words: upbringing, upbringing methods, upbringing guidance, types of upbringing, upbringing factors.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar o‘‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, jamiyat sohalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, mamlakatimiz aholisining umumiy, professional va kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga, ularni muayyan kasb orqali Vatan ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shishga yo‘naltirilgan. Buning uchun davlat tomonidan yoshlarning puxta bilim olishlari va muayyan kasb egallashlari uchun kafolatlangan ta’lim tizimi yaratilgan.

Dunyoda kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tarbiya funksiyasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlar, urf odatlar asosiga qurilgan tarbiyagina bizni globallashayotgan davrning salbiy oqibatlaridan ihotalashi, millat sifatidagi o‘zligimiz va qiyofamizni saqlab qolishi mumkin. Shunday ekan, ta’lim muassasalari, xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari tarbiya jarayoniga hozirgi davr talablari nuqtayi nazaridan ilmiy yondashuvni qaror toptirishi, o‘zining tarbiya borasidagi funksiyalarini yanada aniqlashtirib olmog‘i lozim bo‘ladi. Yoshlar jamiyatga umumiy o‘rta ta’lim maktablari orqali qadam qo‘yar ekan, maktab tabiat va kishilik jamiyatiga oid dalil va xulosalarni tanqidiy tahlil qilishga, ular asosida dunyoqarash, intellekt va kreativ fikrlashga oid xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. U yoshlarni ajdodlarimizning boy ma’naviy xazinasi va erishilgan ilmiy yutuqlar asosida milliy g‘oya ishiga jalb qiladi, ijtimoiy hayot

hodisalarini tushunish va baholashga nisbatan fan va ilm nuqtai nazaridan yondashishga o'rgatadi.

Mazkur masalalarni hal qilishda maktab jamoatchiligi o'z pedagogik faoliyatini tashkil qilishda mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" degan ko'rsatmalariga tayanishi lozim.

Umumta'lim maktablari faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirish, ta'lim va tarbiyaning zamonaviy metodlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni ijodiy o'zlashtirish maktabning hayotdan, hozirgi zamon talablaridan, fan-texnika yutuqlaridan orqada qolmasligini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan ta'lim va tarbiya mazmunini qayta ko'rib chiqish, uni fan va texnologiya, madaniyatning hozirgi taraqqiyoti darajasiga muvofiqlashtirishga oid tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Hal qiluvchi masala umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va lavozim vazifalarini vijdonan bajarishlariga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Maktablarda umumiy o'rta ta'limning amalga oshirilishi va tarbiyaviy ishlar samaradorligining ta'minlanishi o'zaro bir-biriga bog'liq jarayondir. Maktab yoshlarga umumiy o'rta ta'lim ma'lumotini berish bilan birga yoshlarni onglilik, bunyodkorlik ishlariga safarbarlik, mehnatsevarlik an'alariga sadoqat, Vatanga sodiqlik, uning ozodligi va mustaqilligini himoya qilishga tayyorlik ruhida tarbiyalamog'i ham lozim. Shuning barobarida ularda g'oyaviy tarbiyani kamolga yetkazadi va bu bilan yoshlarning ongida globallashuvning salbiy oqibatlariga qarshi turish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning yot ta'sirlarga qarshi tura olishida, milliy g'oyani ongli ravishda anglab yetishida, turli xil g'oyaviy og'ishlarga qarshi kurashishlarida namoyon bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarni mustahkam bilim bilan qurollantira borib, ularda mustaqil bilim olishga doimiy ehtiyojni shakllantiradi, ularning ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladi. Maktab o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim o'quv rejasidagi bilimlar majmuini



o'zlashtirishini ta'minlabgina qolmasdan, ularni kundalik hayot va faoliyatlarida qo'llay olishlarini ham o'rganishlari uchun harakat qiladi, bilimlarning tarbiyalanuvchilar o'z ish faoliyati va xatti-harakatlarida doimo tayanadigan g'oyaviy-axloqiy e'tiqodga aylanishiga imkon yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olish jarayonida o'quvchilarda ijtimoiylashuv ko'nikmalari qaror topadi: jamoatchilik fazilatlarini, ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lish, kattaga hurmat, mehnatsevarlik, intizomlilik, optimizm va ertangi kunga ishonch kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Umumta'lim maktablarining tarbiya borasidagi eng muhim vazifasi o'quvchilarda o'z hayotlarining mazmunini Vatan ravnaqi va jamiyatning farovonligi uchun qilinadigan halol va sadoqatli mehnatda ekanligini anglatishdan iborat.

Turli xil jamoat ishlarida, Yoshlar ittifoqining quyi va o'rta bo'g'in tashkilotlari faoliyatida muntazam qatnashish o'quvchilar uchun yaxshi hayot maktabi hisoblanadi, ularning siyosiy va axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashining shakllanishiga imkon beradi, yuqori darajadagi ijtimoiy faollik, tashkilotchilik, qat'yaitlilik, o'z-o'zini taftish va tanqid qilish sifatlarini tarbiyalaydi, faoliyatning ijtimoiy yo'nalishdagi motivlarini shakllantiradi. Shu jihatdan, maktablarda har tomonlama rivojlangan va uyg'un kamol topayotgan o'quvchi shaxsini shakllantirish uchun olib boriladigan muvaffaqiyatli ishlar majmui muayyan ma'noda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, oila, mahalla va keng jamoatchilikning faol yordami samarasidir.

Umumta'lim maktablarining tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilarda milliy g'oyaga hurmat va vatanparvarlik hissini shakllantirish, ilk siyosiy-axloqiy dunyoqarash shakllarini qaror toptirish, ijtimoiy faollik ko'nikmasini tarbiyalash bilan bog'liq masalalarga ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

Globalashuv sharoitida yoshlarni g'oyaviy jihatdan to'g'ri tarbiyalash umumta'lim maktablarida milliy g'oyani anglash va unga hurmat, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish asosida yo'lga qo'yiladi. Hozirgi davrda milliy g'oyaning namoyon bo'lish xususiyatlari, uni o'sib kelayotgan avlod ongi va shuuriga singdirish va bu jarayonni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Milliy g'oya va uning targ'iboti, mazmuni va shakllari, milliy g'oyaning milliy mafkura bilan o'zaro munosabati, uning tarixiy taraqqiyoti, tadrijiy rivojlanishi, milliy g'oyaning ijtimoiy-tarixiy mazmuni va ahamiyati, millatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yishda milliy g'oyaning o'rni kabi masalalar bir qator faylasuf olimlar, jumladan, E.Yusupov, S.Otamurodov, N.Jo'rayev, K.Tulenova, M.Tillavoldiyeva, B.To'ychiyev, J.Mavlonov, Sh.Paxrutdinov, N.Shermuxamedova, A.S.Achildiyev larning tadqiqotlarida yoritilgan.



Hozirgi kunda yoshlar ongiga milliy g'oya, or-nomus bilan bog'liq ma'naviy, axloqiy va ruhiy fazilatlarni singdirish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan tizimli ishlar mavjud: olib borilayotgan sa'y-harakatlar va erishilayotgan amaliy natijalarga yoshlarni ishontirish, ularni milliy g'oya targ'ibotiga ruhlantirish, ularning davlatimiz va kelajagimizga bo'lgan ishonch-e'tiqodini mustahkamlash olimlarimiz, peshqadam ziyolilarimiz, ijtimoiy soha vakillari, milliy mafkura bilan shug'ullanuvchi barcha targ'ibotchilarning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi.

XX asrning oxiri va asrimiz boshiga kelib hayotimizda "axborot asri", "axborotlashgan jamiyat", "axborot xuruji" kabi tushunchalar paydo bo'ldi. Bu esa bugungi kunda axborot tushunchasining ahamiyati oshganligidan, qamrovi kengayganligidan, maqsad-muddaosi o'zgarayotganligidan darak beradi. Axborot endi biror jarayon, voqelik yoki hodisa haqida xabar berish ma'nosidan chetga chiqib, insonlar ongi va ruhiga ta'sir etishning, jamiyatda mavjud qonun-qoidalarni va butun dunyo e'tirof etgan umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalarni ma'lum maqsad atrofida birlashgan ayrim guruh va jamoalarning manfaatlariga xizmat qiluvchi o'ziga xos yangi talqinlarini yuzaga chiqarishning; siyosiy, iqtisodiy, harbiy, diniy va boshqa bir qancha qarashlarning targ'ibotchisiga aylanib bormoqda. Buning natijasida, insoniyat taraqqiyotining ayni pallasida axborotning omma ongiga ta'siri va uning salbiy oqibatlarini jamiyatning jiddiy muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Endi axborot atalmish qurol vositasida inson ongiga hujum qilish natijasida uning tafakkuri va intellektini egallash, o'z auditoriyasini kengaytirish bilan qudratini oshirish orqali ularni qaysidir g'oya atrofida birlashgan kuchlarning maqsadlariga xizmat qildirish bilan bog'liq "urush"ning zamonaviy ko'rinishlari paydo bo'ldi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichiga kelib, dunyo axborot makonida munosib o'rin egallashga erishish uchun moddiy ko'rinish va shaklga ega bo'lmagan, faqat aql bilan ko'rish va tafakkur bilan anglash mumkin bo'lgan jiddiy kurash avj olmoqda. Soha mutaxassislarining fikricha, axborot qurollari tushunchasi ostida biror xalq, millat mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, dini, davlatning informatsion va harbiy tizimiga salbiy ta'sir o'tkazadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi.

Biz yashab turgan zamon va makonda "aldamchi jilvalari" bilan o'ziga rom etuvchi; matn, tovush yoki tasvir ortida bir qarashda anglash mumkin bo'lmagan, ammo ayrim guruh va jamoalarning g'arazli maqsadlarini targ'ib etuvchi pinhona xurujlar mavjud ekan, bizning jamiyatimizni bu kabi salbiy ta'sirlardan ihotalash uchun, xususan, bu illatning yoshlar ongi va dunyoqarashiga ta'sirini



kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilmog‘da va bu choralarning samaradorligini oshirish uchun yana nimalar qilishimiz lozim bo‘ladi?

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun umumta‘lim maktablarida g‘oyaviy tarbiyani takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1) yoshlarni axborot xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan milliy qonunchilik bazasi bilan tanishtirib borish, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

2) xalqimizning, xususan, yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini o‘stirish, undagi har qanday axborotni tafakkur va tahlil qilib, so‘ng xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz zarur;

3) yoshlarning axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, mamlakatimiz to‘g‘risida noto‘g‘ri, bir taraflama axborot tarqatuvchi har qanday xorijiy axborot vositalari faoliyatini tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatish;

4) ta‘lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta‘minlash, xususan, axborot xurujlari, uning shakl va ko‘rinishlari, maqsadi va salbiy oqibatlar borasida maxsus kurslar o‘tilishini ta‘minlash;

5) milliy g‘oya, mafkura, ma‘naviyat, vatanparvarlik kabi tushunchalar targ‘iboti borasida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik bilan davom ettirish.

Umumta‘lim maktablarining pedagogik jamoalari, o‘qituvchilar, sinf rahbarlarining tajribalari o‘quvchilarda milliy mafkura va g‘oyani anglashga, mazmun-mohiyatini tushunishga va targ‘ib qilishga oid tarbiyaviy faoliyati uchun boy imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligini oshirishga, avvalo, o‘quvchilarning fan asoslarini egallashlari, ularning yangilangan ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirishlari natijasida erishiladi. Hozirgi zamon maktab ta‘limi tabiiy va gumanitar fanlarning zamonaviy yutuqlari, ijtimoiy va fan-texnika taraqqiyoti muvaffaqiyatlarini aks ettiradigan yangi mustahkam g‘oyalar, qarashlar va materiallar bilan boyitilgan. O‘quv dasturlarining eng muhim bo‘limlari bo‘yicha fakultativ mashg‘ulotlarning kiritilishi ham dunyoqarashni shakllantirish yuzasidan olib boriladigan jiddiy ishlarga yordam beradi. Bularning barchasi, shubhasiz, o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘rganiladigan fanlarning dunyoqarashga oid mazmunini takomillashtirishni va o‘quvchilar tomonidan puxta o‘zlashtirilishini taqozo qiladi.

Hozirgi sharoitda umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining siyosiy saviyasini o‘stirish, shu jabhada kuzatilayotgan voqeliklarni to‘g‘ri baholay bilish, tarkib topayotgan siyosiy qarashlarga muvofiq ravishda ish tutish, maktab

jamoatchiligi, mahalla, qishloq, shaharning ijtimoiy hayotida faol qatnashish ehtiyojini hosil qilish 3ta muhim ahamiyatga ega bo'lib turibdi.

O'quvchilarning har tomonlama uyg'un kamol topishida aqliy tarbiya katta o'rin tutadi. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'quvchini mustaqil ravishda bilimlarni izlashga, murakkab vazifalarni hal qilishga jalb etish, narsa va hodisalarning mohiyatiga kirib borishga, o'zi va boshqalarning bilimini to'g'ri va tanqidiy baholay bilishga o'rgatish zarur.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, psixologlar aqlning xususiyatlarini qayd etgan holda aqliy qobiliyatlar tizimini tavsiflaydilar. Ularning qayd etishicha, bu qobiliyatlarining o'sishi tez, chuqur va tizimli fikrlashga imkon beradi. Ammo fikrlash tezligi muayyan aqliy faoliyatni qisqa muddat ichida bajarish, bilim va tajriba zaxirasi, bu bilimlarning xotiradan "ola bilish", ularni real vaziyatlarda qo'llay bilish bilan belgilanadi.

Aqliy kamolot fikrlash faoliyatining yana bir muhim tomonini – uning motivatsiya tomoni: bilish va o'rganish asoslarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham maktab o'quvchilariga bilim va malaka berish bilan cheklanib qola olmaydi. Katta sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika rivoji insondan intellektual jihatdan uzluksiz o'sib borishni, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallashni talab qiladiki, bu maktabni bitiruvchi har bir yosh o'zining kelgusi kamoloti uchun o'zi intilishi, keng yo'nalishda bilim orttirish istagi, bilishga nisbatan qiziqish, sinchkov aql, aqliy ishlash ishtiyoqini egallash uchun imkon beradi. Tabiiy, hozirgi zamon o'quvchilarini aqliy jihatdan tarbiyalashda maktablarda qo'llanilayotgan ta'limning yangilangan mazmuni hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jamiyat uchun bugungi kunda yetarli bilim zaxirasiga ega, rivojlangan ijodiy qobiliyat sohibi bo'lgan va davrning muntazam o'zgarib turadigan sharoiti va o'sib borayotgan talablariga hozirjavob yangi avlodni tarbiyalash zarur.

Umumta'lim maktablari oldida turgan vazifalardan yana biri o'quvchilarning o'qish-o'rganishga ongli munosabatlari va ularning aqliy mehnatlari madaniyati namoyon bo'ladigan vazifalar tashkil qiladi. Bunda o'quvchilarning hayoti va mehnatida ilmiy bilimlarning, umumiy, gumanitar va tabiiy-texnik bilimlarning ahamiyatini tushunishlariga erishish, bilim olishga ishtiyoqini oshirish, bilishga nisbatan qiziquvchanlik, sinchkovlik, kreativ va nostandart fikrlash kabi fazilatlarini shakllantirish alohida o'rin tutadi.

V.A.Suxomlinskiy aqliy mehnat haqida gapirar ekan, shunday deydi: "Biz aqliy mehnatning tadqiqotchilik xarakteriga benihoya ahamiyat beramiz, bolalar kuzatib, fikrlab, o'rganib, qiyoslab haqiqatni topadilar yo bo'lmasa, haqiqatni ochish uchun yangi kuzatishlar, o'qish, tajriba qilish zarurligini bilib oladilar.



Masalan, bizda o'quvchilar donli va dukkakli ekinlar urug'ining tuzilishini o'rganishga kirishishdan avval urug'ni ekib o'stiradilar, bunda har bir navning xususiyatlariga e'tibor beradilar, mushtarak va o'ziga xos xususiyatlari ustida dastlabki kuzatishlarni olib boradilar... Har qanday tajriba, laboratoriya yoki amaliy ishdan u yoki bu sabab va oqibatli bog'liqlik, aloqani ochishgina emas, balki o'quvchilarning aqliy va ifodaviy faollik ko'rsatishlari, tabiat kuchlaridan foydalanish yo'lida kichik bo'lsa-da, qadam qo'yishlariga erishish maqsadi ko'zda tutiladi".

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida mehnatga, ijtimoiy-foydali ishga nisbatan ongli ijobiy munosabatni tarbiyalash masalasini hal qilib, o'quvchi ularning e'tiborini mehnatning jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunishga qaratadi, ularda ijtimoiy-foydali mehnat bilan mashg'ul kishilarga nisbatan hurmat bilan qarashni tarbiyalaydi, halol va ijodiy mehnat qilishga o'rgatadi. Maktablarda o'quvchilarning texnik bilimlarini takomillashtirish, ularning umumiy mehnat madaniyatini va mehnatni ilmiy tashkil qilish asoslarini egallashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. O'quvchilarning kasbga qiziqishlarini oshirish, kasbiy targ'ibot ishlarini to'g'ri tashkil qilish, ularning jamiyat talablaridan kelib chiqib, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlanishlari, ijtimoiy-foydali ishda muntazam va faol qatnashishga tayyor turishga odatlantirishga katta e'tibor berilishi zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axloq tarbiyasi jarayonida o'quvchilarda barkamol shaxs ma'naviy qiyofasi haqida umumiy tasavvur, milliy axloqiy qarashlar borasidagi dunyoqarash, ijtimoiy burchni anglash, nomusi, vijdoni va o'z qadr-qimmatini chuqur his qilish, o'zaro hurmat, do'stlikni chuqur his etish fazilatlarini shakllana boradi. Maktab o'quvchisining xulq-atvori, amaliy faoliyati va xatti-harakati, agar ular jamiyatimizda qabul qilingan axloq normalari talablariga to'g'ri kelsa, axloqiy kamol topganligining mezoni hisoblanadi. Axloqiy tarbiya jarayonida o'quvchilarning turmushi va fe'l-atvoriga singgan axloq qoidalari va me'yorlari ularning to'g'ri ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

Axloqiy madaniyat qoidalarini tushuntirishga maktab o'quvchilariga axloqning to'g'ri asoslarini yoritib berish zarur, bundan maqsad ularni qo'rslikni to'g'ri so'zlikdan, xushmuomalalikni xushomadgo'ylikdan, e'tiborlilikni laganbardorlikdan va hokazolarni o'rgatishdir.

Axloq madaniyatini tarbiyalashda o'quvchilar jamoatchiligi fikri juda muhim ahamiyatga ega. Agar o'quvchilar jamoatchiligi fikri noto'g'ri tarbiyalansa, u kattalar fikriga teskari bo'lishi mumkin. Binobarin, bu fikr xushmuomalalik, jonkuyarlik, ziyraklikni qoralasa, u holda ko'pchilik o'smirlar tarkib topgan fikrga muvofiq harakat qilishga intiladilar. Bunday holatlar maktab

o'quvchilarida qat'iy e'tiqod, axloq madaniyatining malaka va odatlari hali shakllanmaganligidan dalolat beradi.

O'quvchilarni ijtimoiy axloq qoidalariga rioya qilish ruhida tarbiyalashda shuni nazarda tutish kerakki, eng murakkab va muhim ish tushuntirish ishi o'tkazilishidan so'ng boshlanadi. Bunday ish o'quvchilarni faol ijtimoiy faoliyatga, mehnat, o'z-o'zini tarbiyalashga jalb etishdir, bularning natijasida madaniy axloq malakalari va odatlari ham shakllanadi.

Umumta'lim maktablarining tarbiya borasidagi funksiyalaridan biri o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi tizimli ishlarda ko'zga tashlanadi. Maktablarning harbiy qismlar, amaldagi va iste'fodagi harbiy xizmatchilar bilan hamkorlikda olib borayotgan ishlari o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Bu boradagi ishlar o'quvchilarning muayyan harbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga, yuqori sinf o'quvchilarining esa chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik fan dasturlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. O'quvchilar vatan posbonlarining hayoti, turmushi va faoliyati borasidagi hayotiy hikoyalarni ularning o'zlaridan eshitishlariga imkoniyat yaratish ularda harbiy sohaga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Bu bilan o'quvchilar orasida kasbiy targ'ibot ishlari ham amalga oshiriladi.

Estetik madaniyat asoslarini egallash shaxsning har tomonlama kamol topishining tarkibiy qismidir. Maktabda o'quvchilarda tabiat va kishilar o'rtasidagi munosabatdagi go'zallikni estetik to'g'ri idrok etish va his qilish hamda istiqloq mafkurasi va milliy davlatchilik estetik idealiga muvofiq keladigan qarash va tamoyillarga ergashishga ehtiyoj tug'dirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi. Maktab o'quvchilarida san'at va adabiyot asarlarini estetik idrok etish va to'g'ri baholash qobiliyatini o'stirishga jiddiy e'tibor qaratilishi zarur. Madaniyat yodgorliklari, tarixiy qadamjolar, xalq og'zaki ijodini chuqur hurmat qilish, san'at va adabiyotning turli sohalarida faol ijodiy faoliyat ko'rsatishga, shaxsiy qobiliyat va intilishlarini oshirishga ko'maklashish anchasini shakllanadi. O'quvchilarda estetika sohasida o'z bilimlarini doimo takomillashtirib borishga ehtiyoj shakllanadi, ularda estetikani o'z axloqi, mehnati, turmushi, bo'sh vaqtiga olib kira olish ko'nikmalari paydo bo'ladi.

Umumta'lim maktablarining tarbiya funksiyalaridan yana birini jismoniy tarbiya asoslari tashkil etadi. Maktab o'quvchilari faoliyatini o'z salomatligini mustahkamlashga ongli munosabat, jismoniy kamol topishga intilish, Vatan mudofaasiga tayyorlik, jismoniy tarbiya, sport va turizmga qiziqishni oshirish, jismoniy mashqlarni doimiy bajarib borishga ehtiyoj hosil qilishga



yo'naltiradi, o'quvchilardan harakat va iroda xususiyatlari (kuch-quvvat, chidamlilik, tezlik, harakatchanlik, botirlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik kabi) ni takomillashtirishga intilish paydo bo'lishiga erishadi.

Jismoniy tarbiya asoslari borasidagi tizimli ishlar natijasida maktab o'quvchilar salomatligini mustahkamlash bilan birga ularning sanitariya-gigiyena madaniyatini oshiradi, organizmni chiniqtirish va ish qobiliyatini yaxshilashga ehtiyoj tug'diradi, atrofdagilarning salomatligi uchun qayg'urish hissini tarbiyalaydi, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakasini hosil qiladi.

Maktablarda o'quvchilarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash masalasi ajratilgan holda emas, yaxlit tarbiyaviy tizim sharoitida amalga oshiriladi. Umumta'lim maktablarida tarbiya jarayonining bir butunligi uning barcha shakllarining chambarchas bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Har qaysi shaklning vazifasi uning pedagogik jarayonda bajargan roliga bog'liq.

Umumiy tarbiya jarayonida o'quvchi tarbiyaning ham obyekt, ham subyekt bo'ladi. Bu jarayonda shaxsning faolligi tarbiyaviy maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyatning muhim jihatlardan biridir. O'quvchining faolligi o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etishda juda katta ahamiyatga ega. O'z-o'zini tarbiyalash tarbiyalanuvchining hayotiy maqsad va e'tiqodlarga muvofiq ravishda o'z kuch-qudrati va qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradigan ongli va maqsadga qaratilgan faoliyati demakdir.

Umumta'lim maktab o'quvchilari o'z ustlarida ishlashni juda erta boshlaydilar. O'z-o'zini tarbiyalash belgilari maktabgacha va kichik maktab yoshidayoq seziladi, biroq bu yoshda o'z-o'zini tarbiyalash o'zidan kattalarga taqlid tarzida kechadi. O'z-o'zini tarbiyalash o'smirlik va yoshlik yillarida avj oladi. Shu tufayli dastlabki davrlarda ularda shaxsning shu kecha-kunduzgi, kundalik hayotda yuzaga chiqishi lozim bo'lgan va ularning faoliyat sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan xususiyatlarini shakllantirishga intilish paydo bo'ladi. Bu holat kichik maktab yoshidagi bolalar va yosh o'smirlarda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Keyin o'z-o'zini tarbiyalash maqsadi kundalik faoliyatdan ajrala boshlaydi, binobarin, bu hol faoliyatlari bevosita kengayib va murakkablashib borayotgan katta o'smirlik yoshida ayniqsa seziladi.

O'z-o'zini tushuna borgan sari o'quvchi o'z axloqidagi nuqsonlarni seza boshlaydi, unda o'zini va o'z muomalasini o'zgartirishga istak tug'ila boshlaydi. Mana shuning o'zi o'z shaxsini takomillashtirish, tarbiyalash demakdir. Bu o'rinda hayot bergan baho va shaxslar o'rtasidagi munosabatlar natijasida paydo bo'lgan ideal unga namuna bo'lib xizmat qiladi.

Maktab o'quvchilarida o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini shakllantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga o'rgatish o'qituvchi uchun odatdagi ko'nikib qolgan

tarbiyaviy jarayonni tashkil etishdan ko‘ra bir oz murakkab vazifadir. Bu jarayon samarali bo‘lishi uchun jamoani va ayrim o‘quvchilarni yaxshi tayyorlash zarur. Qoloq o‘quvchi o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘ullanmaydi. Buning uchun unda iroda kuchi yetarli bo‘lmaydi. O‘qituvchining vazifasi dastlab o‘quvchilarda faollikni qo‘zg‘atishdan iborat bo‘lishi kerak. Bu jarayonda ular o‘zlarining kuchli va ojiz tomonlarini bilib oladilar, hayotiy qarama-qarshiliklarni yenga bilish malakalarini rivojlantiradilar. Bunday o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tarbiyalash, avvalo, boshqalarni bilib olish, o‘zini o‘rtoqlari bilan, ularning baholarini o‘zining shaxsiy bahosi bilan taqqoslashdan boshlanadi. U boshqalarning axloqini tahlil qilishdan o‘z faoliyati va xatti-harakatini tahlil qilishga o‘tadi. O‘zini tarbiyalashning yuqori nuqtasi o‘zi tushunib yetishdan o‘z-o‘ziga buyruq berish, o‘z-o‘ziga ta’sir ko‘rsatish, o‘zini ishontirish jarayoniga o‘tishdir.

Pedagogikada tarbiya jarayoni ustuvor masalalardan bo‘lib, u tarbiyaning asosiy tamoyillari, maqsadlari va mazmuniga qarab belgilanadi, ammo uni amalga oshirishda tarbiyachi faoliyatining turli darajasi hamda o‘quvchining o‘z rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda unga har doim muayyan tuzatish kiritiladi. Mana shuning uchun ham pedagog tarbiyaning umumiy masalalarini hal etishda o‘z oldiga mazkur masalalarga yondosh, lekin benihoya muhim zarur vazifalar – qayta tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalashni hal qilishni ham qo‘yadi.

Maktab o‘qituvchisining qayta tarbiyalashga oid faoliyati har bir o‘quvchining umumiy kamol topishi bilan bog‘liq. Bu faoliyat tarbiyalash “qiyin” deb atalgan yoki pedagogik nuqtayi nazardan qarovsiz qolgan o‘quvchilar bilan ishlashda yaqqol ko‘rinadi.

Tarbiyaning umumiy tamoyili sifatida ijobiy narsalarga tayanish o‘quvchilarni qayta tarbiyalashni tashkil etishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Agar o‘quvchining kamchiliklariga chidab bo‘lmaslik va uni yo‘qotish zarurligi qayta-qayta ta’kidlanaversa, shuningdek, unda ijobiy xususiyatlarni faqat majburiy ravishda shakllantirishga harakat qilinsa, qayta tarbiyalanish o‘quvchi uchun mashaqqatli bo‘ladi. Bunday o‘quvchilarda ijobiy intilishlar va kechinmalarni xushmuomalalik bilan qo‘zg‘atish qayta tarbiyalash jarayonini tezlashtiradi. Shu sababli qayta tarbiyalash pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan o‘quvchilarda, avvalo, kamchiliklarga qarshi kurashishning muhim sharti bo‘lgan ijobiy tomonlarning namoyon bo‘lishini va rivojlanishini talab etadi. Shunday ekan, real pedagogik jarayonda qayta tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalashning mavjudligi tabiiydir. Maktabning bu boradagi vazifasi shundan iboratki, u o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonini amalga oshira borib, umumiy



tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan qayta tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumandagi so'zlagan nutqi// <http://uza.uz/uz/politics/vatanimiz-taqdiri-va-kelajagi-yo-lida-yanada-hamjihat-bo-lib-15-06-2017>
2. Yusupov E. Milliy goya va mafkura: mohiyati, ijtimoiy-tarixiy ildizlari, axamiyati. – Shimkent. 2001-yil.
3. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. -Toshkent: "O'zbekiston", 2018-yil.
4. Jurayev N. Mafkuraviy immunitet. – Toshkent: "Ma'naviyat nashr", 2000-yil.
5. Tulenova K., Tillavoldiyeva M. Milliy g'oyani falsafiy masalalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2008-yil.
6. Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. . – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021-yil.
7. Achildiyev A.S. Milliy istiklol goyasi – millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili. – Toshkent: 2004-yil.
8. Кочетов А.И. Особенности самовоспитания подростков. «Советская педагогика», 1966. №10. Гришин Д.М., Колдунов Я.И. Руководство самовоспитанием школьников. Калуга, 1968.
9. В.А.Сухомлинский. Павлышская средняя школа. М.: «Просвещение», 1969. 222-223-бетлар.
10. Karuteskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 1976. 200-207-betlar.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish metodlari, usullari, tarbiya funksiyalari, g'oyaviy tarbiya, ahloqiy tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash kabi tarbiya funksiyalarining tarbiya jarayonini boshqarishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется значение воспитательных функций, таких как методы, приемы, воспитательные функции, идеологическое воспитание, нравственное воспитание, самовоспитание в управлении образовательным процессом в общеобразовательных школах.

SUMMARY

This article analyzes the importance of educational functions, such as methods, techniques, educational functions, ideological education, moral education, self-education in the management of the educational process in secondary schools.

